

Sinov laboratoriyasining (SL) Dasturiy ta'minotlarni (DT) axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi bo'yicha sinovdan o'tkazish ketma-ketligi:

I. sinov uchun obyektlarni qabul qilish

- A. dasturning tavsifi (quyidagi ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish):
 - 1) DT haqida umumiy ma'lumot:
 - DTning nomi va versiyasi;
 - DT tarkibi haqida ma'lumot (DTga tarkibiga kiruvchi fayllarning nazorat summalarini ko'rsatgan holda);
 - DTning ishlash muhiti, dasturlash tili, IDE, ma'lumotlar bazasi, OS haqida ma'lumot;
 - DTning maqsadi va ko'lalsh sohalari haqida ma'lumot;
 - DTni qo'llashdagi cheklavlar va DT o'rnatish va ishlash uchun zarur bo'lgan texnik vositalarga qo'yilgan minimal talablar;
 - DTni o'rnatish va ishlash jarayonida ma'lumot almashish amalga oshiriladigan tashqi serverlar ro'yxati;
 - Tashqi serverlarga uzatiladigan va qabul qilinadigan ma'lumotlar turlari.
 - 2) DT arxitekturasining tavsifi:
 - Klijent-Server axborot tizimining (AT) grafik blok-sxemasi;
 - Klijent-Server ATning har bir asosiy qismi (moduli) tavsifi;
 - Klijent-Server ATning boshqa axborot tizimlari bilan aloqalarini tavsiflash (ishlatiladigan protokollar, portlar, shuningdek uzatiladigan ma'lumotlar).
 - 3) Ma'lumotlar bazasining (MB) tavsifi:
 - MBning turi va arxitekturasini;
 - MB va jadvallar grafik blok-sxemasi (bir nechta MBdan foydalanilganda);
 - Har bir jadvalning tavsifi va jadvalda saqlaniladigan obyektning ma'lumotlar tarkibi.
 - 4) DT manba kodining tavsifi:
 - Manba kodining tuzilishi;
 - Komponentlarning tavsifi;
 - Har bir komponent fayllar tavsifi;
 - DTda foydalanilgan tarmoq funksiyalari tavsifi.
- B. Administrator qo'llanmasi (quyidagi ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish):
 - DTning nomi va versiyasi;
 - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi;
 - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning yuridik manzili;
 - Ma'murlarga taqdim yetilgan dasturiy ta'minotning funksional imkoniyatlari bilan bog'liq usullar, texnikalar va ishlash qoidalarining tavsifi.
 - DTni o'rnatish, qabul qilish, ishlash jarayoni bo'yicha ma'lumotlar va Administratorga qo'yiladigan talablar.
- C. Foydalanuvchi qo'llanmasi (quyidagi ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish):
 - DTning nomi va versiyasi;
 - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi;
 - DT ishlab chiqaruvchi tashkilotning yuridik manzili;
 - Ma'murlarga taqdim yetilgan dasturiy ta'minotning funksional imkoniyatlari bilan bog'liq usullar, texnikalar va ishlash qoidalarining tavsifi.
 - DTni o'rnatish, qabul qilish, ishlash jarayoni bo'yicha ma'lumotlar va Foydalanuvchiga qo'yiladigan talablar.
- D. DT manba kodi (to'liqlikni tekshirish):
 - quyidagi tizimlar, qismlar, komponentlar, modullar uchun dasturiy ta'minot tavsifida ko'rsatilgan barcha fayllarning soni, nomi va hajmining muvofiqligini tekshirish.
- E. Bajariladigan fayllar (exe, jar, va boshqalar) (foydalanuvchi interfeysida quyidagi ma'lumotlar mavjudligini tekshirish):
 - DTning nomi va versiyasi;
 - DTni ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi;
 - DTni ishlab chiqaruvchi mamlakatining nomi.
- F. Sinov stendi
 - DT tavsifida ko'rsatilgan minimal talablarga muvofiqligi bo'yicha to'liqligini tekshirish;
 - foydalanuvchi rolining har bir turi uchun hisob qaydnomasi mavjudligi (shu jumladan Administrator huquqlari bilan kirish).

II. Ts 28189200-07:2021 metodologiyasi asosida analizator yordamida manba kodini tahlil qilish

- A. nazorat kompilyatsiyasi va yig'ish
- B. kompilyatsiya qilingan DTni taqdim etilgan DT bilan taqqoslash
- C. analizator yordamida DT manba kodini zaifliklarni aniqlash uchun skanerlash
- D. DT manba kodini fayl darajasida uning tavsifiga muvofiqligini tahlil qilish
- E. DT manba kodini tarmoq funksiyalari tavsifiga muvofiqligini tahlil qilish
- F. manba kodida ortiqcha matnlar va fayllarning yo'qligi
- G. olingan natijalarni tahlil qilish

III. Sandbox yordamida AT tarmoq faoliyatini tekshirish (tekshirish muddati 1 oydan 3 oygacha)

A. Bajariladigan fayllarni o'rnatish va ishga tushirish

- B. AT funksionalini tekshirish (Ts 28189200-06:2021 metodologiyasi asosida):
 - Texnik hujjatlarni tahlil qilish;
 - Parolni belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish;
 - Parolsiz tizimga kirish imkoniyati yo'qligini tekshirish;
 - "Standart" parol bilan tizimga kirish mumkin emasligini tekshirish;
 - Administrator huquqlari bilan tizimga kirish imkoniyatini tekshirish;
 - Ko'p sonli kirish so'rovlarini haqidagi ma'lumotlarning qayd etilishini tekshirish;
 - Bajariladigan fayllarning nazorat summalarini (kompilyatsiya qilingan tildagi DT uchun) yoki ZIP-formatidagi manba kodi arxivini olish va taqqoslash (interpretatsiya qilingan tildagi DT uchun);
 - Tizim yoki MBni zaxira nus'halarini olish va tiklanilishini tekshirish;
- C. aniqlangan tarmoq faoliyatini tahlil qilish

IV. Sinov natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash

V. aniqlangan zaifliklar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun ariza beruvchiga hisobot taqdim etish

VI. Ariza beruvchi aniqlangan zaifliklar va nomuvofiqliklarni bartaraf etganidan keyin DTni takroriy sinovdan o'tkazish

VII. Sinov hisobotlarini ro'yxatdan o'tkazish, tasdiqlash uchun AKT SOga taqdim etish